



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORII ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Quدراتovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIYAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Yuldashev Akmal Kiyomovich
OTU iqtisodiyot 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot kontekstida monopoliyaga qarshi siyosatning o'zgaruvchan tabiati tadqiq qilinadi. 2017–2023-yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar tahlili asosida an'anaviy antitrust vositalarining raqamli platformalar, algoritmik narxlash va ma'lumot monopoliyasiga nisbatan yetarliligi baholanadi. Yevropa Ittifoqi, AQSH, Xitoy va Germaniya tajribasini qiyosiy tahlil qilish orqali O'zbekiston sharoitida qo'llanishi mumkin bo'lgan yangi tartibga solish mexanizmlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, monopoliyaga qarshi siyosat, raqamli platforma, ma'lumot monopoliyasi, algoritmik narxlash, antitrust tartibga solish, raqobat siyosati.

Abstract. This article examines the evolving nature of antitrust policy in the context of the digital economy. Based on the analysis of statistical data from 2017 to 2023, the adequacy of traditional antitrust instruments in relation to digital platforms, algorithmic pricing, and data monopolization is assessed. Through a comparative analysis of the experiences of the European Union, the United States, China, and Germany, new regulatory mechanisms applicable to the conditions of Uzbekistan are proposed.

Key words: digital economy, antitrust policy, digital platform, data monopoly, algorithmic pricing, antitrust regulation, competition policy.

Аннотация. В данной статье исследуется изменяющийся характер антимонопольной политики в условиях цифровой экономики. На основе анализа статистических данных за 2017–2023 годы оценивается достаточность традиционных антимонопольных инструментов в отношении цифровых платформ, алгоритмического ценообразования и монополизации данных. Посредством сравнительного анализа опыта Европейского Союза, США, Китая и Германии предлагаются новые механизмы регулирования, которые могут быть применены в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: цифровая экономика, антимонопольная политика, цифровая платформа, монополизация данных, алгоритмическое ценообразование, антимонопольное регулирование, конкурентная политика.

KIRISH

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirdi, balki bozor raqobati va monopolizatsiya masalalarini mutlaqo yangi konturda ko'rib chiqishni taqozo etdi. Google, Amazon, Meta, Apple va Microsoft kabi texnologiya gigantlari endi an'anaviy sanoat monopoliyalaridan tubdan farqlanuvchi «platforma monopoliyasi» modelini vujudga keltirdi. Bu kompaniyalar foydalanuvchilar ma'lumotlariga, sun'iy intellekt algoritmlariga va tarmoq ta'siriga asoslanib, raqobatchilarni siqib chiqarish imkoniyatiga ega.

Raqamli iqtisodiyotda monopolistik tendensiyalarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud: birinchidan, «nol marginal xarajat» (zero marginal cost) effekti bozorga kirish to'siqlarini oshiradi; ikkinchidan, ma'lumotlar asimmetriyasi dominant kompaniyalarga raqobatchilar ustidan tuzilmaviy ustunlik beradi; uchinchidan, «winner-take-all» dinamikasi bozorlarni tez ravishda kontsentratsiyalashuvga olib keladi. Shu bois an'anaviy monopoliyaga qarshi qonunchilikning bu yangi reallikka muvofiqligi savolini ko'ndalang qo'ymoqda.

Maqolaning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida monopoliyaga qarshi siyosatni takomillashtirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab berish, shuningdek, O'zbekiston uchun mos islohot yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.



Tadqiqotning vazifalari: (1) raqamli bozorlarning monopolizatsiya xususiyatlarini tahlil qilish; (2) xorijiy davlatlar antitrust tajribasini qiyosiy o'rganish; (3) 2017–2023-yillar statistik ma'lumotlari asosida tendensiyalarni aniqlash; (4) takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli bozorlar va antitrust siyosatiga oid ilmiy adabiyotlar so'nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. Biroq mavzu murakkabligi va dinamizmi tufayli munozarali masalalar ko'p.

Tirole J. ning raqamli platformalar iqtisodiyotiga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlari bozorni tartibga solishning yangi paradigmasini tahlil etadi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, ko'p tomonlama platformalar (multi-sided platforms) an'anaviy antitrust tahlilini samarasiz qiladi, chunki narx va hajm ko'rsatkichlari bir tomonlama ma'no anglatmaydi.¹ Bozor kuchinig o'lchovi sifatida faqat bozor ulushiga tayangan holda qaror qabul qilish raqamli muhitda yangilash xulosalarga olib kelishi mumkin.

Parker G., Van Alstyne M. va Choudary S.P. lar tomonidan yozilgan «Platform Revolution» (2022-nashr) asarida platforma iqtisodiyotining asosiy mexanizmlari, jumladan tarmoq ta'siri (network effects) va ma'lumotlar monetizatsiyasi batafsil tahlil qilinadi.² Mualliflar shunday xulosaga kelishadi: an'anaviy vertikalidan-integratsiya qilish o'rniga, platformalar ma'lumot monopoliyasi orqali bozorni nazorat qiladi va bu holat mavjud antitrust vositalarining «ko'r nuqtasini» hosil etadi.

Khan L.M. Amazon-ning raqobatga zidligi masalasini tahlil qilishga bag'ishlangan ishida bozor nazoratida yashirin mexanizmlarni ochib berdi. Uning ta'kidlashicha, raqamli platformalar bir vaqtning o'zida bozor operatori va raqobatchi sifatida faoliyat yuritishi «strukturaviy ziddiyat» (structural conflict of interest) ni yuzaga keltiradi.³ Ushbu tadqiqot AQSHda antitrust qonunchiligini isloh qilish diskussiyasini yangi bosqichga ko'tardi va FTC (Federal Trade Commission) rahbariyatining yangi kontsepsiyasini belgiladi.

Cremer J., de Montjoye Y.-A. va Schweitzer H. tomonidan Yevropa Komissiyasi uchun tayyorlangan dokladda (2023) raqamli bozor iqtisodiyoti uchun yangi raqobat vositalari taklif etiladi. Mualliflar «tipping» (bir kompaniyaning ustunligiga o'tish) effektini oldini olish uchun ex-ante (oldindan) tartibga solish zaruriyatini asoslab beradi.⁴ Bu yondashuv Yevropa Raqamli Bozor Qonunining (Digital Markets Act, 2022) kontseptual asosiga aylandi.

Shapiro C. va Varian H.R. ning klassik «Information Rules» asarida ma'lumot iqtisodiyotidagi monopolistik tendensiyalar tahlil qilingan. Biroq Gans J. (2023) bu kontsepsiyani yangi texnologik reallik – sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) kontekstida qayta ko'rib chiqib, iqtisodiy nazariyani zamonaviylashtirishni taklif etadi. Uning fikricha, AI asosidagi algoritmlar narxlash koordinatsiyasini yashirin tarzda amalga oshirishi mumkin va bu raqobat huquqining yangi obyektiga aylanishi kerak.⁵

Vestager M. va boshq. (2023) tadqiqotida Yel Raqamli Bozor Qonunining tatbiq etilish birinchi yili natijalari tahlil qilingan. Muallif guruhi DMA ning «gatekeeper» platformalarga nisbatan qo'llanilishi natijasida Apple, Google va Metaning bazaviy xizmatlarida raqobat muhiti bir muncha yaxshilanganini, biroq «chilling effect» (samarali raqobatni to'xtatib turuvchi samaralar) kuzatilayotganini qayd etadi.⁶

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Birinchidan, qiyosiy tahlil (comparative analysis) metodi asosida AQSh, Yel, Xitoy, Germaniya va O'zbekistonning antitrust qonunchiligi va amaliyoti taqqoslandi. Ikkinchidan, statistik va metrik tahlil usullaridan foydalanib, 2017–2023 yillar oralig'idagi miqdoriy ko'rsatkichlar o'rganildi.

Ma'lumot manbalari sifatida quyidagilardan foydalanildi: (a) OECD, ICN (International Competition Network) va Jahon banki tomonidan chop etilgan raqamli iqtisodiyot va antitrust to'g'risidagi hisobotlar; (b) Yevropa Komissiyasi va FTC (Federal Trade Commission) rasmiy statistikasi; (c) Raqamli Bozor Qonuni (Digital Markets Act, 2022) va tegishli tartibga solish hujjatlari; (d) O'zbekiston Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining statistik ma'lumotlari.

Tadqiqotning metodologik cheklavlari sifatida quyidagilar qayd etiladi: raqamli bozorlarning kuzatilishi qiyin bo'lgan ko'rsatkichlari (masalan, algoritmik narxlash ko'lami) to'liq hisobga olinmagan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, turli davlatlar antitrust organlarining statistik metodologiyalari bir xil emas, shu sababli qiyosiy tahlilda ehtiyotkorlik zarur. Tadqiqotda ushbu cheklavlarni minimallashtirish maqsadida imkon qadar xalqaro standartlashtirilgan ma'lumot manbalari ishlatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalarini bayon etishdan avval bir muhim kontekstni qayd etish lozim: raqamli iqtisodiyotning o'sishi bilan birga monopoliyaga qarshi chora-tadbirlarning hajmi ham sezilarli darajada oshdi, biroq ushbu o'sish barcha davlatlarda bir xil tarzda namoyon bo'lmadi. Quyida keltirilgan jadval va tahlillar ushbu dinamikani yetti yillik kesmada ko'rsatib beradi (1-jadval).



1-jadval. Raqamli iqtisodiyot va monopoliyaga qarshi faoliyat ko'rsatkichlari (global, 2017–2023)¹

Ko'rsatkich	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Raqamli iqtisodiyot ulushi (YaIM, %)	15.5	17.1	19.0	21.5	24.4	26.8	29.3
Monopoliya jarimalari (mlrd. AQSH \$)	8.2	11.7	14.3	9.8	16.5	21.2	27.4
Antitrest ishlar soni (global)	312	341	389	298	427	512	589
Katta texnologiya kompaniyalari bozor ulushi (%)	62	65	67	71	74	76	78

Manba: OECD Digital Economy Outlook 2023, ICN Annual Report 2023, Bloomberg Intelligence.

1-jadval tahlili ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot ulushi 2017-yildagi 15,5% dan 2023-yilga kelib 29,3% ga etdi, ya'ni yetti yil ichida deyarli ikki barobar oshdi. Shu bilan birga, antitrest jarimalari hajmi ham 8,2 mlrd. dollardan 27,4 mlrd. dollargacha ko'tarildi. Biroq e'tiborga loyiq holat shundaki, 2020-yilda pandemiya ta'sirida antitrest ishlar soni kamaydi (298 ta), shu bilan birga katta texnologiya kompaniyalarining bozor ulushi yanada oshdi (71% ga etdi). Bu ko'rsatkich tartibga solish organlarining raqamli bozorlar dinamikasiga moslashishida muayyan kechikish mavjudligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval. Raqamli iqtisodiyot sharoitida antitrest siyosatining xalqaro qiyosiy tahlili²

Davlat	Qonunchilik bazasi	Raqamli platforma nazorati	Jarima mexanizmi	M&A tekshiruvi	Data sharing	Samaradorlik bali
Yevropa Ittifoqi	DMA, DSA (2022)	Kuchli	YaIM 10%gacha	Ex-ante	Majburiy	8.7 / 10
AQSH	Sherman, Clayton	O'rta	Belgilanmagan	Ex-post	Ixtiyoriy	6.4 / 10
Xitoy	AML 2022 (yangi)	Faol	Daromad 10%gacha	Aralash	Majburiy	7.5 / 10
Germaniya	GWB 10-nashri	Kuchli	Yuqori	Ex-ante	Majburiy	8.2 / 10
O'zbekiston	2021 Raqobat qon.	Rivojlanmoqda	O'rta	Ex-post	Ixtiyoriy	4.8 / 10

Manba: muallif tomonidan OECD, European Commission, FTC va O'zbekiston Raqobat qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, samaradorlik bali bo'yicha Yel (8,7/10) va Germaniya (8,2/10) yetakchi o'rinlarni egallaydi. Asosiy differentsiatsiya omili: Yel va Germaniya ex-ante (oldindan oldini oluvchi) nazorat mexanizmini joriy etgan bo'lsa, AQSH va O'zbekiston asosan ex-post (keyin jarimalaydigan) yondashuvda qolib ketgan. Xitoyning 2022-yilda yangilangan Monopoliyaga qarshi qonunchilik majmuasi va 7,5 ballik ko'rsatkichi uning tez rivojlanayotganligidan dalolat beradi. O'zbekiston esa 4,8 ball bilan o'rtacha darajadan past turadi, bu qisman rivojlanayotgan raqamli infratuzilma va tartibga solish salohiyatining yetarli emasligi bilan izohlanadi (3-jadval).

3-jadval. Antitrest organlarining institutsional va texnologik salohiyati (2019–2023)³

Ko'rsatkich	2019	2020	2021	2022	2023
Antitrest organ xodimlar soni (ming naf.)	18.4	17.9	21.3	24.6	28.1
AI tahlil vositalarini qo'llash (%)	12	18	31	47	63
Tez tekshiruv o'rtacha muddati (oy)	18.2	17.5	14.8	12.1	9.7
Platformalararo ma'lumot almashinuvi (%)	5	7	14	22	39
Iste'molchi shikoyatlari hal etilish darajasi (%)	54	58	65	71	79

Manba: ICN Capacity Building Reports 2019–2023, G7 Competition Policy Report 2023.

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi



3-jadval tahlilidan ko'rinadiki, antitrust organlari tomonidan AI tahlil vositalaridan foydalanish 2019-yildagi 12% dan 2023-yilga kelib 63% gacha o'sdi. Bu texnologik o'zgarishning bevosita natijalari sifatida tekshiruv muddatining 18,2 oydan 9,7 oygacha qisqarishi va iste'molchi shikoyatlarini hal etish darajasining 54% dan 79% gacha oshishi kuzatildi. Platformalararo ma'lumot almashinuvi ham 5% dan 39% gacha o'sdi, bu esa raqobat muhitining yaxshilanishiga hissa qo'shdi. Mazkur korrelyatsion bog'liqlik texnologik salohiyatni oshirishning siyosiy samaradorlik bilan bevosita aloqadorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining tahlili bir qator muhim sabab-oqibat bog'liqliklarini yuzaga chiqaradi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot ulushining oshishi bilan katta texnologiya kompaniyalarining bozor ulushi parallel ravishda o'sishi (2017-yildagi 62% dan 2023-yildagi 78% gacha) an'anaviy antitrust mexanizmlarining raqamli bozorlarni tartibga solishdagi cheklanganligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ex-ante va ex-post tartibga solish o'rtasidagi farq amaliyotda katta ahamiyatga ega. Yel tajribasi ko'rsatadiki, Raqamli Bozor Qonunining joriy etilishi (2022) va Apple, Google, Meta, Amazon kabi «gatekeeper» kompaniyalarga majburiyatlar yuklash real raqobat muhitini yaxshiladi. Ayni paytda AQSH da asosan jarimalar orqali harakat qilish (ex-post yondashuv) bozor tuzilmasini o'zgartirishda sezilarli natija bermayapti.

Uchinchidan, ma'lumotlar monopoliyasi masalasi yangi o'lcham bo'lib ko'rindi. An'anaviy antitrust tahlili narx va mahsulot/xizmat sifatiga qaraydi. Biroq raqamli iqtisodiyotda asosiy raqobat «kim ko'proq ma'lumot to'playdi» printsipida kechadi. Foydalanuvchilar ko'pincha xizmatlarni bepul oladi, shu sababli an'anaviy zarar tushunchasi ishlamaydi. Bu «zero-price paradox» (nol-narx paradoksi) monopoliyaga qarshi tahlilning metodologik asosini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Amaliy takliflar blokida O'zbekiston kontekstida quyidagi yondashuvlar taklif etiladi. Birinchi taklif: algoritmik auditlash instituti. Dominant raqamli platformalar uchun algoritmik narxlash va tavsiya tizimlarini mustaqil texnik ekspertiza qilish mexanizmi joriy etilishi lozim. Yel dan farqli o'laroq, O'zbekiston bu mexanizmni xususiy sektor bilan birgalikda («regulatory sandbox» formatida) bosqichma-bosqich amalga oshirishi mumkin.

Ikkinchi taklif: portabillik va o'zaro operabellik standartlari. Foydalanuvchilarning o'z ma'lumotlarini bir platformadan ikkinchisiga erkin ko'chirish huquqi (data portability) qonunchilik darajasida mustahkamlanishi kerak. Bu iste'molchi tanlovini kengaytiradi va yangi raqobatchilarning bozorga kirish imkonini oshiradi. Uchinchi taklif: raqamli birlashtirish va qo'shilishlar (M&A) nazoratini kuchaytirish. Hozirgi vaqtda katta platformalar tomonidan startaplarni sotib olish ko'pincha antitrust tekshiruvidan o'tmaydi, chunki «kichik» kompaniyalarning daromadlari threshold darajasidan past bo'ladi. «Killer acquisition» (raqobatchi startaplarni yutib yuborish) fenomenini oldini olish uchun narx o'rniga strategik ahamiyatga ko'ra tekshiruv mezonlari ishlab chiqilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni qo'llab-quvvatlaydi. Raqamli iqtisodiyotda monopolistik tendensiyalar yangi shakl kasb etmoqda: ma'lumot monopoliyasi, algoritmik narxlash koordinatsiyasi va «winner-take-all» dinamikasi an'anaviy bozor konsentratsiyasi ko'rsatkichlari orqali to'liq ifodalanmaydi. Shu bois antitrust tahlilining metodologik bazasini yangilash zarur. Xalqaro qiyosiy tahlil ko'rsatadiki, ex-ante tartibga solish (Yel va Germaniya modeli) ex-post jarimalarishdan ko'ra samaraliroq natijalarga erishmoqda. Ayniqsa, «gatekeeper» platformalar uchun majburiy o'zaro operabellik va ma'lumot portabilligi talablarini joriy etish raqobat muhitini real takomillashtirdi. O'zbekiston uchun quyidagi uchta asosiy yo'nalish tavsiya etiladi: algoritmik auditlash mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish; foydalanuvchi ma'lumotlari portabilligi to'g'risida qonun qabul qilish; va raqamli M&A tekshiruvi mezonlarini yangi realikka moslash. Bu islohotlarni amalga oshirishda Yel DMA tajribasi metodologik asos sifatida xizmat qilishi, biroq O'zbekistonning rivojlanish darajasi va iqtisodiy kontekstiga mos moslashtirish zarur. Kelajak tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar istiqbolli ko'rinadi: O'zbekistondagi alohida raqamli bozorlarning (e-tijorat, moliyaviy texnologiyalar, telekommunikatsiya) monopolizatsiya darajasini empirik o'lchash va AI-asosidagi antitrust instrumentlarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tirole J. Economics for the Common Good. – Princeton University Press, 2023. – 576 p.
2. Parker G., Van Alstyne M., Choudary S.P. Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy. – W. W. Norton & Company, 2022. – 352 p.
3. Khan L.M. Amazon's Antitrust Paradox // Yale Law Journal. – 2023. – Vol. 132. – P. 710–805.
4. Cremer J., de Montjoye Y.-A., Schweitzer H. Competition Policy for the Digital Era: Final Report. – European Commission, 2023. – 128 p.
5. Gans J. The Quantity Theory of Data and Its Implications for Competition Policy // Journal of Economic Perspectives. – 2023. – Vol. 37(2). – P. 3–30.
6. Vestager M. et al. One Year of the Digital Markets Act: Preliminary Assessment and Policy Implications // European Competition Journal. – 2023. – Vol. 19(3). – P. 511–548.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
